

RAQAMLI TIJORAT RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Saida Safibullayevna Beknazarova

Mustofoyeva Malika G'ayratjon qizi

Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad Al-Khwarizmi

XXI asr zamonaviy texnologiyalar ko'p jihatdan rivojlanib, insoniyat yashash tarzini yanada qulay va sodda qilayotgan davr bo'lib, ayni kunlarda elektron tijorat atamasi tobora kengayib bormoqda. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, elektron tijorat deganda, Tovar buyurtmasini online qabul qilish, tovar yetkazib berilishi, xizmat bajarilishidagi qatnashuvni o'z ichiga oluvchi operatsiyalarning yopiq skill texnologiyasi tushuniladi. Elektron tijoratning asosiy g'oyasi biznes operatsiyalarini Internet tarmoqlari orqali rivojlantirishdir. Elektron tijorat ommalashishining bir qator sabablari mavjud bo'lib, bularga misol qilib, xaridorlarga mahsulotni istalgan vaqtda, uyda, ofisda yoki metroda sotib olishga imkon beradi, vaqtni tejaydi, ya'ni mahsulotni sotib olish uchun do'konga yoxud bozorga borish uchun vatq sarflamaydi, uning o'rniga foydali mashg'ulotlar bilan shug'ullanish imkonini yaratadi, bundan tashqari mahsulot haqida ko'plab kerakli ma'lumotlarga ega bo'la oladi, bir vaqtning o'zida boshqa mahsulotlar bilan taqqoslab, uni o'rganadi[1].

Elektron tijorat shu va shu kabi ko'plab qulayliklarga ega bo'lsa-da, hali bir qator yangiliklar va rivojlanishlar amalga oshirilishini talab qiladi. Xususan, elektron tijoratni rivojlantirish maqsadida yangidan-yangi axborot texnologiyalarini qo'llash lozim. Mahsulotning 3D formatda namoyish qila olish xususiyatiga ega bo'lgan gadjetlar, planshetlar va mobil aloqa qurilmalarining tarqalishini kengaytirish, mijozlarga ulardan samarali foydalanish usullarini o'rgatish har jihatdan manfaatli bo'lib, bunda mahsulot yoki xizmatning odatiy sur'atlarini ko'rgandan ko'ra xaridorda iliq fikrlar qolishini ta'minlaydi. Xaridorlar mahsulotni aslidagidek ko'rish bilan barobarida, uni boshqa mahsulotlar bilan solishtirib, afzalliklari yoxud kamchiliklari ustida ko'proq ma'lumotlarga ega bo'ladi. Bu kabi zamonaviy qurilmalar nafaqat xaridorlarga, balki tijoratchi, savdogar hamda tadbirkorlar uchun ham sarmoyador bo'lib, mahsulotlarning almashinuvini yaxshilaydi, mijozlari sonining oshishiga olib keladi.

Elektron tijoratni rasmiylashtirish, ya'ni davlat ro'yxatidan o'tqizish hisobiga rivojlantirish yana bir asosiy tendensiyalardan bo'lib, xaridorlar qalbaki, sifatsiz mahsulotlarni sotib olish xavfidan yiroq bo'ladilar. Bunda online oldi-sotdi jarayonlari hamda mahsulotning kafolati daavlat tijorat organlari tomonidan nazorat qilib boriladi. Undan ko'zlangan maqsad esa, yetkazib berilgan mahsulotdan xaridorning ko'ngli to'lmasa, mahsulotni boshqasiga erkin almashtirish yoxud pulni qaytarib olish imkoniyatiga ega bo'lishi, yolg'on va aldovlar, turli ishlab chiqaruv tijoratchilari qurboniga aylanmasligi hamda elektron bozorga bo'lgan ishonchning ortishi hisoblanadi. Mijozlar tijorat markazining litsenziyasi, ishonch qog'ozlari bilan tanishib chiqqan holda hech ikkilanmay mahsulotga buyurtma berishi hamda yetkazib berish xizmatidan foydalanishi mumkin [2].

Davlatning siyosiy o'rni uning iqtisodiyoti hamda xalqi farovonligi bilan uzviy bog'langan bo'lib, iqtisodiyotning bir bo'laki bo'lmish elektron tijoratni rivojlantirish orqali mamlakatning yalpi ichki mahsulotlari ishlab chiqarilishi va online bozorda xaridorbobligining oshirilishi

hamda uning oqibatida eksport hajmining kengaytirilishi, aholini milliy mahsulotlar bilan ta'minlanishi asosiy maqsadlardan biri etib belgilanishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. U. K. YAKUBOV, YO. S. ILXAMOVA, M. I. AZIZOVA. “Elektron tijorat” darslik 1-qism. T.-2019
2. Mengliyev Sh. “Elektron tijorat tizimlari va ularning ahamiyati” nazariya. T.-2014
3. Khallokova, M. E. (2021). CRITERIA FOR NON-EDUCATIONAL INSTITUTIONS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION. *World Bulletin of Social Sciences*, 5, 52-55.
4. XDamirovich, M. R., Kholikulovna, M. E., & Ibragimovna, A. S. (2022). THE USE OF INNOVATIVE TECHNIQUES IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE. *Ijodkor o 'qituvchi*, 2(19), 483-488.
5. Damirovich, M. R., & Ibragimovich, T. I. (2022). Sattarovich AU THE ROLE OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN PROMOTING THE IDEAS OF RELIGIOUS TOLERANCE AND INTERNATIONAL HEALTH. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10, 1.
6. Дехканбаева, М. Н., Накибов, К., & Мустаев, Р. (2019). ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ОПУСТЫНИВАНИЯ. *Экономика и социум*, (11), 939-942
7. Мустаев, Р. Д., & Абдуллаев, С. А. (2020). АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИИЛАР ДАВРИДА АХЛОКИЙ-ЭСТЕТИК ГОЯЛАРНИНГ РИВОЖЛАИИШИ. *Интернаука*, (24-3), 23-24.